EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	990
Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna	
IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI.....	995
Davlatova Ozoda Olmos qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKTNI JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1001
Suyunova Dilfuza Dilmurod qizi	
BOZORNI SEGMENTATSIYALASHDA MARKETING TADQIQOTLARINING ROLI	1006
Musayeva Shoira Azimovna, Usmonova Dilfuza Ilxomovna	
O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI	1010
Sharifboyev Bunyod Azamat o'g'li, Abduraxmanova Gulnora Qalandarovna	
TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA KAPITALNING ROLI	1016
Mirzaraximova Nurhayot Baxrom qizi	
ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВУЗОВ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ И РЫНОЧНОЙ КОНКУРЕНЦИИ	1020
Ходжаева Наргизахон Анатолиевна	
FUNDRAISING AS A STRATEGIC TOOL IN MUSEUM MANAGEMENT	1028
Aziza Ibroximova	
KORXONALARDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLİYALASHTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	1035
Boboraxmatova Shohsanam Ibdullo qizi	
MOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI XALQARO STANDARTLARGA O'TKAZISHNING O'ZBEKISTONDAGI DINAMIKASI VA NATIJALARI (OLMALIQ KMK MISOLIDA)	1043
A.J.Tuychiyev, M.V Abdunabiyeva	
TARMOQLANGAN AVTOMOBIL YO'LLARI QURISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: FARG'ONA VODIYSI (FARG'ONA VILOYATI VA QO'QON HUDUDI) MISOLIDA RAQAMLI LOYIHALASH, OPTIMALLASHTIRISH VA INTELLEKTUAL BOSHQARUV	1051
Yakubov Maqsadxon Sultaniyazovich, Norinov Muhammadyunus Usibjonovich, Zikrayev Akmaljon Alimovich	
O'ZBEKISTONDA KORPORATIV INNOVATSIYA TIZIMINI ISH SAMARADORLIGINI BAHOLOVCHI (KPI) AXBOROT TIZIMINI ISHLAB CHIQISH VA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	1057
Rafikova Kamila Baxtiyorovna	
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING MOLİYAVIY BOZOR RIVOJIGA TA'SIRI	1063
Abdulazizov Javohir Abduvali o'g'li	
OILAVIY TADBIRKORLIKNI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLİYALASHTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	1070
Davlyatov Qahramon Abdumavlyanovich	
AMORTIZATSIYALANADIGAN AKTIVLAR HISOBINING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	1077
Aminboyev Jaloliddin Otabek o'g'li	
BANKLARDA RISK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH.....	1083
Karimov Shoxrux Boydulla ugli	
DIGITALIZATION, RESEARCH CAPACITY AND HIGHER EDUCATION DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN: AN ARDL-ECM ANALYSIS (2000-2024)	1087
Ismailova Nilufar	
TURIZMDA TALAB VA TAKLIFNI BAHOLASH USULLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	1094
Suyunov Alijon Jumaboy o'g'li	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ УПРАВЛЕНИЯ ДОХОДАМИ И РАСХОДАМИ НА ФИНАНСОВУЮ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ	1099
Аймухаммедова Амина Какажановна	
"O'ZMILLIYBANK" AJDA MIJOZLARNING KREDITGA LAYOQATLILIGI DARAJASI HOLATI TAHLILI	1105
Jumaniyazov Quvanchbek Amatjonovich	



SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1110
Qodirov Bekzod Xomidjonovich	
FARMATSEVTIKA SANOATINING ASOSIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI IQTISODIY-STATISTIK USULLARI ORQALI TAHLILI	1115
O'taganova Umida Egamberdi qizi	
MAMLAKATIMIZDA XOTIN – QIZLAR O'RTASIDA MAHALLIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	1123
Rafiyeva Madina Xusinovna	
YASHIL IQTISODIYOTDA DEPOZIT TIZIMINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA BOSHQARISH	1128
Norqobilova Feruza Abduhomidovna, Odilov Jahongir Nozimjonovich	
OPTIMIZING HUMAN CAPITAL: THE IMPACT OF SCHOOL MANAGEMENT ON ORGANIZATIONAL CULTURE IN VOCATIONAL EDUCATION.....	1132
Karimova Dilfuza Xatamjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSİYALARINING INNOVATSION MAZMUNI RIVOJLANISHINING DOLZARB YO'NALISHLARI	1138
Batirova Raxima Abdujabbarovna, Raximjonov Ulug'bek Boxodir o'g'li	
IQTISODIY TIZIMLARNI MAKRO VA MIKROIQTISODIY DARAJADA PROGNOZLASH: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR VA MODELLASHTIRISH USULLARI	1142
Alimov Fazliddin Xalimovich	
ISLOMIY MOLIYA INSTITUTLARIDA FOIZSIZ MOLIYALASHTIRISH TAMOIYLLARINING IQTISODIY MOHIYATI.....	1147
Pulatova Adolat Djaxangirshyevna	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVASION FAOLIYATNI SAMARALI BOSHQARISH JARAYONLARI	1152
Fayzieva Dilafruz Shuhratovna	
MARKAZIY BANK RAQAMLI VALYUTASI (CENTRAL BANK DIGITAL CURRENCY): NAZARIY ASOSLAR VA XALQARO TA'RIFLARNING QIYOSIY TAHLILI	1156
Tashqo'ziyev Suxrob Abdurazzak o'g'li	
KORXONALARNI MOLIYAVIY INQIROZGA OLIB KELUVCHI SABABLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI.....	1161
Bobomirzayev Isroil	
ИНКЛЮЗИВНЫЙ РОСТ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ, УСЛОВИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РЕАЛИЗАЦИИ.....	1165
АскарOVA Мавлуда Турабовна	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDA MOLIYAVIY BOZOR MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1171
Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
BANK TIZIMIDA OPERATSION RISKLARNI BAHOLASH VA MONITORING MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	1176
Muxitdinova Difuza Farxodovna	
KO'P DARAJALI YONDASHUVNING MIKRO, MEZO VA MAKRO DARAJALARDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKLARINI ASOSLASH HAMDA MODEL ARXITEKTURASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK TAMOIYILLARI	1183
Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
TIJORAT BANKLARI DAROMAD BAZASINING TARKIBI VA DINAMIKASI ("TURONBANK" ATB MISOLIDA)	1191
Togayev Salim Sobirovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KAPITAL TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI KAPITAL BAHOSINI MINIMALLASHTIRISH MEXANIZMLARI	1196
Obidov Sanjar Omonxo'jayevich	
O'ZBEKISTON XIZMATLAR EKSPORTINING GEOGRAFIK TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI: GRAVITATSION MODEL ASOSIDA TAHLIL	1202
Qodirjonov Adhamjon	



AKSIONERLIK JAMIYATLARDA MOLIYAVIY INVESTITSİYALAR HISOB VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA YURITISH	1206
Suyunov Yorqin Bekturodovich	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA TADBIRKORLIK INFRATUZILMASINING INSTITUTSIONAL OMILLARI	1212
Arifbayev Bobur Dilshodovich	
СТРАТЕГИЧЕСКАЯ ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ В РАМКАХ СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН – 2030»	1219
Аблаева Валентина Борисовна	
FINANCING A GREEN UNIVERSITY: MECHANISMS, MODELS, AND STRATEGIC DIRECTIONS FOR SUSTAINABLE CAMPUS DEVELOPMENT	1227
I. Imomov, F.Nishonov	
ПОНЯТИЕ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОГО МАРКЕТИНГА В УЗБЕКИСТАНЕ	1234
Шоев Алим Халмуратович	
ANALYZING UZBEKISTAN'S EU EXPORT TRENDS THROUGH THE GENERALIZED SYSTEM OF PREFERENCES PLUS (GSP+) SCHEME	1239
Aziz Zikriyoyev, Rajabova Malika Nuriddin qizi	
ANALYZING UZBEKISTAN'S EU EXPORT TRENDS THROUGH THE GENERALIZED SYSTEM OF PREFERENCES PLUS (GSP+) SCHEME	1239
Aziz Zikriyoyev, Rajabova Malika Nuriddin qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSILAR HISOBIGA ASOSLANGAN XOLATDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI TASHKIL ETISH TARTIBI	1247
Xasanova Xusnoraxon Faxriddinova	
HUDUDIY MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA INVESTITSION FAOLLIKNING ROLI VA UNING RIVOJLANISH MEKANIZMLARI	1251
Ollanazarov Bekturod Davlatmuratovich	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ К ИССЛЕДОВАНИЮ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ УНИВЕРСИТЕТОВ	1257
Менглиева Индира Баходировна	
ЦЕНООБРАЗОВАНИЕ НА ЭНЕРГЕТИЧЕСКОМ РЫНКЕ: ВЫЗОВЫ И ВОЗМОЖНОСТИ	1261
Умарбеков Бахром Ботирбекович	
O'ZBEKISTON QAYTA SUG'URTA TIZIMIDA "ALTERNATIVE RISK CAPITAL"NI JORIY ETISH: IQTISODIY MODEL, EMPIRIK TAHLIL VA ME'YORIY TAKLIFLAR (JAHON TAJRIBASI MISOLIDA)	1270
Jorabaev Jasur Abduraxmanovich	
O'ZBEKISTON QAYTA SUG'URTA TIZIMIDA ALTERNATIVE RISK CAPITAL'NI JORIY ETISH: IQTISODIY MODEL, EMPIRIK TAHLIL VA ME'YORIY TAKLIFLAR (JAHON TAJRIBASI MISOLIDA)	1276
Jo'rabayev Jasur Abdurahmonovich	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA BOSHQARUV KADRLARINING LIDERLIK SALOHİYATINI BAHOLASH MASALALARI	1282
Rasulov Shohruxbek G'ulomjon o'g'li, Ibragimov Isroil Usmonovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA MEVA VA SABZAVOT ISHLAB CHIQUARISH KO'RSATKICHLARINING XO'JALIKLAR TOIFALARI BO'YICHA TAHLILI	1286
Majidova Dilnoza Bahromovna	
TURISTIK XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTEKLEKTNING (SI) TA'SIRI	1290
Begimqulov Javohirbek Jo'raqul o'g'li	
MINTAQADA SANOAT TARMOQLARI RIVOJLANISHIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMI VA ZARURLIGI	1300
Xodjaeva Feruza Komilovna	



MINTAQADA SANOAT TARMOQLARI RIVOJLANISHIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMI VA ZARURLIGI

Xodjaeva Feruza Komilovna

Xorazm viloyati, Urganch shahar, 22-son umumta'lim maktabi o'qituvchisi

E-mail: xodjaevaf@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada sanoat korxonalarida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmi, uning zarurligi hamda zamonaviy strategiyalarni rejalashtirish jarayonida qo'llaniladigan modellar tahlil qilingan. Sanoat tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning korxonalar iqtisodiy samaradorligini oshirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, sanoat tarmog'ida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va ushbu jarayonlarni tashkil etish bilan bog'liq tushunchalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni belgilovchi omillar hamda sanoat tarmoqlari va ularda faoliyat yuritayotgan korxonalarda tadbirkorlik layoqatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarga tavsif berilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, rejalashtirish, kichik biznes, mexanizm, iqtisodiy samaradorlik, zamonaviy strategiya, bozor, tadbirkorlik, qiymat.

Abstract. This article examines the economic mechanism for developing entrepreneurial activity in industrial enterprises and its necessity, as well as the models used in planning modern strategies. Measures aimed at developing the industrial sector and their role in increasing the economic efficiency of enterprises are highlighted. In addition, the paper describes concepts related to the development and organization of entrepreneurial activity in the industrial sector, factors determining the development of small business and private entrepreneurship, and factors influencing the realization of entrepreneurial potential in the industrial sector and in enterprises operating within it.

Key words: industry, planning, small business, mechanism, economic efficiency, modern strategy, market, entrepreneurship, value.

Аннотация. В статье рассматриваются экономический механизм развития предпринимательской деятельности на промышленных предприятиях и его необходимость, а также модели, используемые при планировании современных стратегий. Освещаются меры, направленные на развитие промышленного сектора, способствующие повышению экономической эффективности предприятий. Раскрываются понятия, связанные с развитием предпринимательской деятельности в промышленном секторе и организацией данных процессов, факторы, определяющие развитие малого бизнеса и частного предпринимательства, а также факторы реализации предпринимательского потенциала в промышленном секторе и на предприятиях, функционирующих в его рамках.

Ключевые слова: промышленность, планирование, малый бизнес, механизм, экономическая эффективность, современная стратегия, рынок, предпринимательство, ценность.

KIRISH

Yetakchi tarmoqlardan biri hisoblangan sanoat tarmog'i mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan sohalaridan biridir. Ushbu sanoat tarmog'ini yanada rivojlantirish imkoniyatlarining kengligini inobatga olgan holda, tarmoq samaradorligini oshirish, xalqaro bozorlarga mos raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hamda milliy sanoat brendini jahon miqyosida tanitish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Sanoat tarmog'ini rivojlantirishga qaratilgan barcha chora-tadbirlar korxonalarning iqtisodiy samaradorligini oshirishga hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga xizmat qilmoqda. Sanoat korxonalarida



tadbirkorlik faoliyatini yanada samarali tashkil etish ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshlik darajasini aniqlash, raqobatbardoshlik omillarining ta'sirchanlik darajasini o'rganish, korxonalarga munosib baho berish, yo'l qo'yilayotgan kamchilik va muammolarni aniqlash hamda rivojlangan mamlakatlar tajribasidan samarali foydalanishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Iqtisodiyotdagi tizimli o'zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi joriy yilda 35 foizdan 37 foizga ortishi kutilmoqda. Biroq ayrim shahar va tumanlarda bu o'ta muhim masalaga yetarlicha e'tibor berilmayapti. Oqibatda respublikaning 27 ta tumanida sanoatning ulushi viloyat ko'rsatkichining 1 foiziga ham yetmaydi. Shu sababli har bir tuman va shahar sanoatini rivojlantirish bo'yicha o'rta va uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqish zarur" [1].

Sanoat respublikamiz iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Chunki sanoat qo'shimcha qiymat yaratishi, aholi ehtiyojlarini qondirishdagi o'rni hamda yuqori darajadagi ishlab chiqarish lokomotivi sifatidagi xususiyati bilan boshqa soha va tarmoqlardan tubdan farq qiladi. Sanoat tarmog'ining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda o'sishini ta'minlaydi.

Iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan sanalgan sanoat tarmog'i korxonalarida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish quyidagi o'zgarishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni talab etadi:

- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish orqali chinakam mulkdorlar sinfini kengaytirish;
- xom ashyo yetkazib berishga ixtisoslashgan an'anaviy tarmoqlardan voz kechib, ularning o'rnida tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi quvvatlarni barpo etish;
- moddiy (yer, kapital) va shaxsiy insoniy (mehnat, tadbirkorlik) resurslardan samarali foydalanish orqali ishlab chiqarishni innovatsion yo'l bilan rivojlantirish;
- sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi subyektlarning erkin faoliyat yuritishi uchun davlat tomonidan ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy kafolatlar yaratish;
- O'zbekiston sanoat mahsulotlarining jahon bozoriga kirib borishini ta'minlash maqsadida zamonaviy xorijiy firmalar tajribasi hamda texnika-texnologiyalarini mamlakat sanoatiga joriy etish va buning uchun qulay investitsion muhit shakllantirish;
- mavjud ishlab chiqarish tajribasi, malakali kadrlar salohiyati hamda intellektual mulk resurslarini bosqichma-bosqich rivojlantirish;
- ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash manbalari orqali imtiyozlar yaratish va moliyaviy mablag'larni maqsadli yo'nalishlarga jalb etish.

Umuman olganda, sanoat tarmog'ida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va ushbu jarayonlarni tashkil etish bilan bog'liq ko'plab tushunchalar mavjud. Kichik biznesni rivojlantirish mexanizmi ana shunday tushunchalar sirasiga kiradi. "Mexanizm" tushunchasi yunon tilidan olingan bo'lib, dastlab mexanika fanida qo'llanilgan va iqtisodiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish usullari hamda vositalari yig'indisini anglatadi [2].

Mazkur tushuncha turli davrlarda iqtisodchilar tomonidan keng va turli ma'nolarda talqin qilingan. Har bir davrda ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya o'ziga xos mexanizmga ega bo'lgan. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mexanizmini anglash uchun, avvalo, bozor mexanizmi tushunchasiga to'xtalish lozim. Bozor mexanizmi — bozor tizimiga xos bo'lgan, bir-birini taqozo etuvchi va o'zaro bog'liq holda amal qiluvchi iqtisodiy vositalar majmuidir. Ularga talab, taklif, foyda, zarar, raqobat, narx va pul kabi kategoriyalar kiradi.

Sanoat tarmog'ida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mexanizmi esa sanoat tarmog'iga kiruvchi korxonalarda biznes faoliyatini tashkil etish, yuritishning usullari, uslublari va prinsiplari majmuini ifodalaydi. Ushbu mexanizm orqali biznes faoliyatini rivojlantirish jarayoni, munosabatlari hamda subyektlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar amalga oshiriladi.

Xo'jalik mexanizmi va rivojlantirish mexanizmlari masalalariga bag'ishlangan ilmiy ishlarda ko'plab taniqli iqtisodchilar, jumladan L.I. Abalkin, N.Q. Yo'ldoshev, Sh.N. Zaynutdinov, G'.M. Qosimov, E.X. Maxmudov va boshqalar o'z ilmiy qarashlarini bildirganlar [3]. V.F. Fillipov xo'jalik mexanizmi tarkibiga rivojlanishning asosiy elementlari sifatida rejalashtirishni, iqtisodiy dastaklar va rag'batlarni, tashkiliy tuzilmalarni, usul va uslublarni hamda ishlab chiqarishni rivojlantirishda mehnat jamoasining turli shakldagi ishtirokini kiritadi, deb ta'kidlaydi [5].

Demak, xo'jalik mexanizmi va rivojlantirish mexanizmi o'zaro uzviy aloqada bo'lib, mazmunan bir-biriga yaqin tushunchalar hisoblanadi. Shuni ham ta'kidlash joizki, ko'plab iqtisodiy adabiyotlarda "rivojlantirish mexanizmi", "xo'jalik mexanizmi" va "iqtisodiy mexanizm" tushunchalari aniq farqlanmagan. Biroq bozor iqtisodiyoti sharoitida "rivojlantirish mexanizmi" tushunchasi asosiy tashkiliy-iqtisodiy kategoriya sifatida namoyon bo'lib, biznes faoliyati bilan bog'liq boshqa mexanizmlarni ham o'zida mujassamlashtiradi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy tadqiqot metodologiyasida qo'llaniladigan usullardan samarali foydalanildi. Xususan, maqolada mintaqada sanoat tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmi va uning zarurligini asoslashda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotlarni guruhlash, tahlil va sintez, induksiya hamda deduksiya kabi umumilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Shunday qilib, rivojlantirish mexanizmini rivojlantirish obyekting faoliyati natijalari bilan bog'liq bo'lgan omillarga ta'sir ko'rsatishni ta'minlovchi rivojlantirish tizimining faol elementi sifatida qarash lozim. Demak, rivojlantirish mexanizmi rivojlantirish maqsadlariga erishish uchun rivojlantirish subyektlari tomonidan qo'llaniladigan, rivojlantirish jarayonlariga ta'sir etuvchi usullar, vositalar va dastaklar yig'indisini ifodalaydi.

Rivojlantirish mexanizmi rivojlantirishda qo'llaniladigan ta'sir vositalari yoki iqtisodiy richaglar majmuasi sifatida ham talqin etiladi. Shu bilan birga, rivojlantirish mexanizmi rivojlanish imkoniyatlari va natijaviy samarani belgilovchi personal faol aktivligining motivlari yig'indisini ham anglatadi. Biroq mavjud ta'riflarda rivojlantirish ta'sirini amalga oshiruvchi subyekt aniq ko'rsatilmagan.

Shu munosabat bilan, kichik korxonaning rivojlantirish mexanizmini rahbarlarning moslashuvchanligini ta'minlash maqsadida ular tomonidan qo'llaniladigan rivojlantirish ta'sirining prinsiplar, uslublar, funksiyalar va instrumentlarining korxonaning iqtisodiy hamda ijtimoiy faoliyat yuritish jarayoniga ko'rsatadigan ta'sirlari majmui sifatida tavsiflash maqsadga muvofiqdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mexanizmi ularning faoliyatini samarali tashkil etish va o'zaro uyg'unlikda rivojlanishini ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi. Eng avvalo, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi mazkur mexanizmning samarali ishlashiga bevosita bog'liqdir.

Rivojlantirish mexanizmi bir qator tarkibiy elementlarni o'z ichiga oladi (1-rasm).



1-rasm. Rivojlantirish mexanizmi elementlari

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish zarurligini belgilovchi omillar yuzasidan quyidagi fikrlarni ta'kidlash mumkin:

- respublika bozorini zarur iste'mol tovarlari va xizmatlar bilan to'ldiradi;
- aholining, ayniqsa ortiqcha mehnat resurslari mavjud bo'lgan qishloq hududlarida, ish bilan bandligini ta'minlaydi;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik nafaqat ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan ta'minlash, balki tashqi bozorlarga ham raqobatbardosh mahsulotlar chiqarish imkoniyatiga ega;
- kichik biznes subyektlari bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga tez moslashish qobiliyatiga ega;
- fan va texnikaning yangi yutuqlarini tezkor o'zlashtirish salohiyati mavjud.

Bundan tashqari, rivojlantirish mexanizmi murakkab iqtisodiy kategoriya sifatida quyidagi tarkibiy elementlarni o'z ichiga oladi:



- rivojlantirish maqsadlari (BM);
- miqdoriy analog (o'xshash) maqsadlar (BK) — rivojlantirish mezonlari;
- rivojlantirish omillari (BO) — rivojlantirish elementlari hamda maqsadlarga erishish jarayonida ular o'rtasidagi o'zaro aloqalar;
- ko'rsatilgan rivojlantirish omillariga ta'sir etish usullari (TU);
- rivojlantirish resurslari (BR) — moddiy va moliyaviy resurslar hamda ijtimoiy salohiyat;
- kompleks rivojlantirish mexanizmi (KBM).

Shunga ko'ra, muayyan rivojlantirish mexanizmi obyektini funksional jihatdan tavsiflash va tizimli tarzda tasvirlash mumkin.

KBM (BM: BK: BO: TU: BR) (1)

Kompleks mexanizm tarkibidagi alohida rivojlantirish mexanizmlarining asosiy funksiyalarini o'zaro muvofiqlashtirish rivojlantirish jarayonining maksimal samaradorligi va natijaviyligini ta'minlash imkonini beradi.

Majmuaviy rivojlantirish mexanizmi tashkilotni rivojlantirish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi tashkiliy-iqtisodiy, motivatsion va huquqiy elementlar tizimining majmuasi hisoblanadi. Ushbu mexanizm murakkab va tizimli shakllangan bo'lib, bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan bir qator elementlardan tashkil topadi.

Iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tutgan o'rnini yoritishda uning afzalliklarini sanab o'tish kichik biznesning mohiyatini yanada to'liq ochib beradi. Shunga ko'ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini sanoat korxonalarida rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish hamda tadqiq etish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Shuni e'tirof etish lozimki, sanoat korxonalarida tadbirkorlik faoliyatini olib borish imkoniyati ularning ishlab chiqarish salohiyati bilan bevosita bog'liqdir [6]. "Sanoat ishlab chiqarish salohiyati" iqtisodiy kategoriya sifatida murakkab tushuncha bo'lib, uning tarkibiy qismlari ham ko'plab elementlardan iborat. Jumladan, A.O. Larionov va boshqa iqtisodchilarning tadqiqotlarida sanoat salohiyati moddiy-texnik, moliyaviy, mehnat, infratuzilmaviy va investitsion salohiyat ko'rsatkichlari orqali tavsiflanadi [7]. Mazkur ko'rsatkichlar sanoat korxonasi ishlab chiqarish salohiyatini innovatsion elementlar orqali rivojlantirish darajasini belgilab beradi. Sanoat korxonasi salohiyati mamlakatning xom ashyo bazasi va barcha mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aks ettiradi.

Bugungi kunda sanoat bozordagi zarur muvozanatni ta'minlash, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, aholi daromadlarini ko'paytirish hamda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish kabi muammolarni samarali hal etish imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur tarmoq yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, qayta ishlovchi sanoatda bitta ish o'rnining yaratilishi boshqa tarmoqlarda ikki yoki uchta ish o'rnini yaratilishiga olib keladi [8].

Sanoat korxonalarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va barqaror rivojlanish darajasiga erishish boshqaruv hamda tartibga solish mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Sanoat korxonalarida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratishning strategik yo'nalishlari byudjet, soliq, pul-kredit, narx va valyuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar sanoat korxonalarining mamlakat iqtisodiyoti rivojida muhim o'rnini hamda ularda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish davlatning qator iqtisodiy muammolarini bartaraf etishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

L.I. Abalkin ta'kidlashicha, xo'jalik mexanizmi faoliyat yuritish shakllari va usullarining majmui bo'lib, o'z tarkibiga nafaqat bazaviy, balki bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi ustqurmaviy elementlarni ham qamrab oladi [9]. V.A. Ulyanov fikriga ko'ra, xo'jalik mexanizmi ishlab chiqarishni tashkil etish usuli va xo'jalik yuritish shakli bo'lib, reja, iqtisodiy normativlar, narx, foyda, ish haqi, moliya, kredit va qaror qabul qilish jarayonlari orqali ishlab chiqarish munosabatlarini shakllantiruvchi tizim hisoblanadi. Shu bilan birga, u ishlab chiqarish kuchlari va ularning tuzilmasini tashkil etishni ham anglatadi [10]. Ye.E. Vershigora esa xo'jalik mexanizmi rejalashtirish, iqtisodiy rag'batlantirish, bozor mexanizmi va tashkiliy tuzilmaning o'zaro uyg'unligi natijasida shakllanishini ta'kidlaydi [11].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda aytish mumkinki, xo'jalik mexanizmi asosan makrodarajaga xosdir.

Bizningcha, rivojlantirish mexanizmi quyidagi besh asosiy elementdan tashkil topadi:

- rivojlantirish obyekti va subyekti;
- maqsadlar va funksiyalar;
- rivojlantirish organlari va tashkiliy tuzilma;
- usullar va tamoyillar;
- vositalar.

Fikrimizcha, rivojlantirish tizimi va rivojlantirish mexanizmi bir xil tushunchalar emas. Ularning farqi shundaki, mexanizm o'z tarkibiga rivojlantirish usullari, shakllari va funksiyalarini qamrab oladi. Tizim esa yuqoridagilardan tashqari rivojlantirish funksiyalarini amalga oshiruvchi rivojlantirish apparatini ham o'z ichiga oladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilmiy manbalarda mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti va uning barqaror o'sishi, asosan, iqtisodiyotda sanoat tarmog'ining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Sanoat korxonalarida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari iqtisodiyot, marketing va menejment yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan bo'lib, ushbu faoliyatni rivojlantirish milliy iqtisodiyotda mavjud qator iqtisodiy muammolarni hal etishga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Sanoat korxonalarida tadbirkorlik faoliyatini samarali tashkil etish va uning barqaror rivojlanishi, avvalo, ushbu faoliyatni qanday shakl va usullarda tashkil etish hamda boshqarishga bevosita bog'liqdir. Jahondagi yetakchi brend kompaniyalar tajribasi ish jarayonining yuqori samaradorligi ko'pincha uning qay darajada oqilona tashkil etilganligi bilan izohlanishini ko'rsatadi. Shu bois, sanoat korxonalarida bozor talablariga mos ravishda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni joriy etmasdan turib samarali amalga oshirilishi qiyin.

Milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblangan sanoat tarmog'ida hamda ushbu tarmoqda faoliyat yuritayotgan korxonalarda tadbirkorlik layoqatini mujassamlashtirish ko'plab omillarga bog'liqdir. Qator iqtisodchi olimlar mazkur jarayonga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida ichki va tashqi muhit omillarini hamda boshqa ijtimoiy-iqtisodiy omillarni ko'rsatib o'tadilar.

Olib borilgan tahlil va o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, milliy iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan ayrim sanoat korxonalarida kompleks yondashuvning yetarli darajada mujassamlashtirilmaganligi natijasida tovar va xizmatlar bozorlarida yuqori talabga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlari cheklanib qolmoqda. Bu holat, o'z navbatida, sanoat korxonalarida jahon miqyosida tan olingan marketing tamoyillarini keng joriy etishni taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2019-yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. — 2018-yil 28-dekabr. URL: <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi-28-12-2018>
2. Maxmudov E. X., Ortiqov A., Karimov F. Korxona iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini. — Toshkent: Hamkor, 2010-yil 7-fevral.
3. Abdukarimov I. T. va boshqalar. Korxona iqtisodiy salohiyati tahlili. — Toshkent: Iqtisodiyot va hudud dunyosi, 2003. — 256 b.
4. Филиппов В. Ф. Беседы о хозяйственном механизме. 2-е изд., доп. — Москва: Политиздат, 1984. — 192 с.
5. Hausmann R., Rodrik D. Economic Development as Self-Discovery. // Journal of Development Economics. — December 2003.
6. Hausmann R., Hwang J., Rodrik D. What You Export Matters. — NBER Working Paper. — January 2006.
7. Управление экономическим потенциалом организации: учебное пособие / А. П. Романов, Г. Г. Серебренников, В. М. Безутлая, О. В. Кириллина, М. К. Чарыкова. — Тамбов: Изд-во ФГБОУ ВПО «ТГТУ», 2012. — 27 с.
8. Lavopa A., Szirmai A. Industrialization, Employment and Poverty. — UNU-MERIT Working Paper Series No. 2012-081. — Maastricht, The Netherlands: United Nations University, Maastricht Economic and Social Research Institute on Innovation and Technology, 2012.
9. Абалкин Л. И. От экономической теории до концепции долгосрочной стратегии. // Проблемы современной России. — Москва, 2011. — С. 39–47.
10. Сеялова Г. С. Организационно-экономический механизм управления предприятиями: монография. — Оренбург: Оренбургский государственный университет, 2006. — 139 с.
11. Вершигора Е. Е. Менеджмент: учебное пособие. 2-е изд., перераб. и доп. — Москва: ИНФРА-М, 2000. — 283 с.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>